

Buxoro viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari 2025- yil yanvar-iyun


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida o'zgarishi
- III. Xizmat turlari bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yil yanvar-iyun oylarining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra (*norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda*), ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **18 974,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,4** % ni tashkil etib, uning hajmi esa **3 557,4** mlrd. so'mga o'sishi qayd etildi.

Ma'lumot uchun: 2024- yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar hajmi **15 417,1** mlrd. so'mni, o'sish sur'ati esa **110,0** % ni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



¹2024- yil yanvar-iyun oylari hajmi va 2025- yil yanvar-iyun oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida o'zgarishi

2025- yilning yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi **26,9 %**, ya'ni **5 111,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan ushbu shaharning o'sish sur'ati **111,8 %** ga yetgan.

Shu bilan birga, eng yuqori ulush G'ijduvon (**7,6 %**), Romitan (**5,7 %**) va Jondor (**5,7 %**) tumanlarida kuzatilmoqda.

Peshku tumanida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **680,9** mlrd. so'mni yoki jami xizmatlar hajmining **3,6 %** ini tashkil etdi. O'sishi **10,3 %** ga yetdi.

Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimida asosiy ko'rsatkichlari 2025- yil yanvar-iyun

	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati ¹	18 974,5	100,0	112,4
<i>tumanlar:</i>			
Olot	462,4	2,4	115,6
Buxoro	691,5	3,7	115,7
Vobkent	628,5	3,3	77,5
G'ijduvon	1 449,1	7,6	110,5
Kogon	416,4	2,2	116,7
Qorako'l	624,8	3,3	115,2
Qorovulbozor	247,2	1,3	119,8
Peshku	680,9	3,6	110,3
Romitan	1 078,0	5,7	180,2
Jondor	736,3	3,9	112,5
Shofirkon	583,1	3,1	112,1
Buxoro shahri	5 111,0	26,9	111,8
Kogon shahri	515,9	2,7	121,9

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining shahar va tumanlar kesimidagi hajmi](#)

2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **9 108,4** ming so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davri (**7 517,2** ming so'm)ga nisbatan **1 591,2** ming so'mga yoki **10,7 %** ga o'sishi qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, ushbu davrda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori ko'rsatkichi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, **16 963,1** ming so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan **9,8 %** ga yoki **2 643,2** ming so'mga o'sishi kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan past ko'rsatkichi Shofirkon tumanida (**3 090,2** ming so'm) qayd etilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **111,0 %** ni tashkil etdi.

¹shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o'sish sur'ati ko'rsatkichlari (2025- yil yanvar-iyun)

	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	9 108,4	110,7
<i>tumanlar:</i>		
Olot	4 358,5	114,1
Buxoro	3 791,3	113,6
Vobkent	4 140,5	76,2
G'ijduvon	4 414,1	109,0
Kogon	4 803,3	114,2
Qorako'l	3 576,5	113,7
Qorovulbozor	12 117,2	117,5
Peshku	5 085,3	108,3
Romitan	7 004,3	177,6
Jondor	3 889,6	110,6
Shofirkon	3 090,2	111,0
Buxoro shahri	16 963,1	109,8
Kogon shahri	7 852,2	120,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi](#)

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati](#)

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **12 916,5** mlrd. so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **68,1** % ini tashkil etdi.

Shahar va tumanlar bo'yicha Buxoro shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi 2024- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **486,6** mlrd. so'mga yoki **19,2** % ga oshib, **2 189,4** mlrd. so'mga yetdi. Bu shahar va tumanlarda kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **42,8** % ni tashkil etadi.

Bundan tashqari, G'ijduvon (**1 163,8** mlrd. so'm), Jondor (**586,6** mlrd. so'm) va Buxoro (**538,1** mlrd. so'm) tumanlarida ham yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi.

Qorovulbozor tumanida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **135,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **104,1** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, Kogon (**335,2** mlrd. so'm) va Olot (**375,6** mlrd. so'm) tumanlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi nisbatan past bo'lgan.

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari
2025- yil yanvar-iyun

	Hajmi, mlrd. so'mda	Jami hajmdagi ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	12 916,5	68,1	113,3
<i>tumanlar:</i>			
Olot	375,6	81,2	111,9
Buxoro	538,1	77,8	118,2
Vobkent	490,3	78,0	115,0
G'ijduvon	1 163,8	80,3	112,1
Kogon	335,2	80,5	110,9
Qorako'l	481,9	77,1	117,1
Qorovulbozor	135,0	54,6	104,1
Peshku	517,1	75,9	114,5
Romitan	523,2	48,5	120,5
Jondor	586,6	79,7	115,6
Shofirkon	449,0	77,0	114,1
Buxoro shahri	2 189,4	42,8	119,2
Kogon shahri	378,7	73,4	116,7

III. Xizmat turlari bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 27 fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga savdo xizmatlarining **14,0 %** ga (o'sishiga ta'siri **3,0** bandni), yashash va ovqatlanish xizmatlarining **9,0 %** ga (o'sishiga ta'siri **2,4** bandni), transport xizmatlarining **13,9 %** ga (o'sishiga ta'siri **2,4** bandni), moliyaviy xizmatlarning **13,6 %** ga (jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'sishiga ta'siri **1,8** bandni tashkil etdi), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining **18,7 %** ga (o'sishiga ta'siri **0,6** bandni) o'sishi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. O'z navbatida, ijara xizmatlarining **21,8 %** ga, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarining **21,4 %** ga o'sishi jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmining **0,4** foiz bandga, hamda ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarining **17,0 %** ga, kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash sohasidagi xizmatlarining **14,4 %** ga o'sishi jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmining **0,3** foiz bandga o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-iyun)

	Hajmi, mlrd. so'mda		O'sish sur'ati, % da
	2024- y.	2025- y.	
Xizmatlar – jami	15 417,1	18 974,5	112,4
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	469,6	601,9	123,5
moliyaviy xizmatlar	2 159,1	2 502,4	119,1
transport xizmatlari	2 631,9	3 319,9	114,0
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>2 406,8</i>	<i>3 007,6</i>	<i>111,2</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	4 119,1	5 145,7	107,7
savdo xizmatlari	3 371,1	4 029,5	110,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	233,8	286,1	111,9
ta'lim sohasidagi xizmatlar	738,5	882,5	108,9
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	266,5	366,3	110,4
ijara xizmatlari	236,8	316,3	125,6
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	299,4	371,1	110,4
shaxsiy xizmatlar	290,0	374,3	109,1
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	85,0	112,2	123,3
boshqa xizmatlar	516,3	666,3	113,0

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2025- yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **27,1 %**, savdo xizmatlari **21,2 %**, transport xizmatlari **17,1 %**, moliyaviy xizmatlar **13,2 %**, ta'lim sohasidagi xizmatlar **4,6 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa **3,2 %** ulushni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2024- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari **26,7 %**, savdo xizmatlari **21,9 %**, transport xizmatlari **18,6 %**, moliyaviy xizmatlar **14,0 %**, ta'lim sohasidagi xizmatlar **4,8 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa **3,0 %** ulushni tashkil etgan.


2024- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi **1 026,6** mlrd. so'mga oshib, **5 145,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Yashash va ovqatlanish xizmatlarining o'sishiga asosan oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari ta'sir ko'rsatib, ushbu xizmatlarning ulushi **96,7 %** darajasida qayd etildi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi **4 029,5** mlrd. so'mga yetdi, o'sish sur'ati esa 2024- yilning mos davriga nisbatan **110,2 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmidagi ulushi **21,2 %** darajasida qayd etildi.

2024- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan transport xizmatlari hajmi **688,0** mlrd. so'mga oshib, **3 319,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

O'z navbatida, transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **90,6 %**. Yordamchi transport faoliyati **9,0 %** darajasida qayd etildi.


Savdo xizmatlari hajmining tarkibi



Savdo xizmatlarining umumiy hajmida chakana savdo ulushi **61,4 %** ni tashkil etdi. Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi esa **26,2 %** ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, shu jumladan ularni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, savdo xizmatlarining umumiy hajmida **12,4 %** ni tashkil etdi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **601,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Telekommunikatsiya xizmatlarining aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmidagi ulushida eng katta qismini egallab, **79,2 %** ni tashkil etdi. 2024 yilning mos davriga nisbatan uning o'sish sur'ati **114,8 %** ni tashkil etgan.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari turlari bo'yicha xizmatlar hajmi, mlrd. so'm



2025- yilning yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **882,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi ustunlik qilib, **75,9 %** ni tashkil etdi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmi (**286,1** mlrd. so'm)da shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar ulushi **98,9 %** ni tashkil etdi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **366,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Mazkur sohadagi xizmatlar umumiy hajmining **36,4** % ini sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa xizmatlar egalladi. Shunday qilib, shifoxona muassasalari xizmatlari **31,5** % ni, tibbiy amaliyot va stomatologiya sohasidagi xizmatlar esa **12,3** % ni tashkil etdi.

Ijara xizmatlarining umumiy hajmidagi eng katta ulushni yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlari (**49,5** %) egallaydi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

Oylik xizmatlar hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlari (ro'yxat) bo'yicha statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmat ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.



Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil (kengaytirilgan) ro'yxati

Chiqarish uchun javobgar:
*Xizmatlar sohasi statistikasi
bo'limi*

Manzil:200100, Buxoro,
S. Ayniy ko'chasi,3
Pochta:*info@buxstat.uz*
Tel.: 65-223-79-41

